



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 йил 4-апрель, № 69 (8964)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



MINTAQAVIY HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI YUZASIDAN FIKR ALMASHILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 3-aprel kuni "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammitida ishtirok etish uchun Samarqandga kelgan Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon va Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan uchrashuvlar o'tkazdi.



Turkmaniston Prezidenti davlatimiz rahbariga Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning samimiy salomini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

O'tgan yil yakunlariga ko'ra 1,1 milliard dollardan oshgan tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari barqaror o'sib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Sanoat, energetika, transport, qishloq va suv xo'jaligi sohaslarida kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli

amalga oshirilmoqda. Birgalikda "Shovot – Toshovuz" chegaraldi savdo zonasi tashkil etilmoqda. Faol hududlararo muloqotlar va madaniy-gumanitar almashinuv doirasidagi tadbirlar muntazam o'tkazilmoqda.

Bo'lajak oliy darajadagi ikki tomonlama uchrashuvlar va ko'p tomonlama tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish, shuningdek, keng qamrovli hamkorlik bo'yicha qo'shma loyihalarni ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston va Tojikiston yetakchilari muloqotida joriy yil 31-mart kuni Xo'jand shahrida o'tgan oliy darajadagi uch tomonlama uchrashuvning tarixiy natijalari katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Chegara masalalarining to'liq tartibga solinishi mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda yangi sahifa ochishi ta'kidlandi.

O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shu oyda bo'lib o'tadigan Hukumatlararo komissiya yig'ilishida tovar ayirboshlashni ko'paytirish va kooperatsiya loyihalarni jadallashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab

chiqish muhimligi qayd etildi.

Yetakchilar mintaqaviy kun tartibidagi masalalarni, shuningdek, ikki va ko'p tomonlama tadbirlarga tayyorgarlikni muhokama qildilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov ham uchrashuv avvalida Xo'jand shahrida davlat rahbarlarining uch tomonlama uchrashuvi samarali bo'lgani hamda davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risida tarixiy shartnoma imzolanganini alohida mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish masalalari, xususan, sanoat, transport, energetika va infratuzilma

sohalarida muhim kooperatsiya loyihalarni jadallashtirish choralarini ko'rib chiqildi.

Davlat rahbarlari faol hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirish zarurligini ta'kidladilar.

Bo'lajak tadbirlar rejasini va mintaqaviy hamkorlikning boshqa dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O'zbekiston va Qozog'iston yetakchilari uchrashuvida strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini ikki davlat rahbarlarining yaqinda Olmaota shahrida bo'lib o'tgan norasmiy uchrashuvida erishilgan kelishuvlarni hisobga olgan holda yanada

rivojlantirish hamda mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Ikki mamlakat hukumatlari tovar ayirboshlashni ko'paytirish, iqtisodiy loyihalar va gumanitar dasturlarni, shu jumladan, hududlar darajasida ilgari surish bo'yicha muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar ko'rishini muhimligi ta'kidlandi.

Xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazini ishga tushirish jarayonini tezlashtirish to'g'risida kelishib olindi.

Shuningdek, mintaqaviy kun tartibi yuzasidan fikr almashildi, oliy darajadagi tadbirlar jadvali ko'rib chiqildi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON VA YEVROPA ITTIFOQI O'RTASIDAGI O'ZARO ISHONCHGA ASOSLANGAN ALOQALAR YANADA MUSTAHKAMLANADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 3-aprel kuni "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammitida ishtirok etish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen bilan suhbatlashdi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi hamda 4-aprel kuni bo'lib o'tadigan mintaqalararo sammit va iqlim forumiga oid masalalar ko'rib chiqildi.

So'ngra davlatimiz rahbari Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen bilan uchrashuv o'tkazdi.

O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot va investitsiya sohaslarida yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Turli darajalardagi faol muloqotlar va sermahsul almashinuvlar, amaliy hamkorlikning institutsional mexanizmlari doirasida samarali ishlar olib borilayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolashiga tayyorlanmoqda.

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi barqaror ortib bormoqda. Yevropaning yetakchi kompaniyalari ishtirokidagi investitsiya loyihalari portfeli 30 milliard yevrodan ziyodni tashkil etmoqda. Mamlakatimiz Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining yirik benefitsiari hisoblanadi. Toshkent shahrida Yevropa investitsiya bankining mintaqaviy vakolatxonasi ochilmoqda.

Evropa Ittifoqining bosh institutlari rahbarlari yangi O'zbekistonda barpo etish bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar dasturini, shuningdek, Markaziy Osiyoda yaxshi qo'shnichilik, ishonch va sheriklikni mustahkamlash borasidagi siyosatni yuksak baholadilar va qat'iy qo'llab-quvvatlashlarini bildirdilar.

Muzokaralarda asosiy e'tibor innovatsiyalar, "yashil" energetika, tog'-kon tarmog'i, qishloq xo'jaligi, transport, logistika, raqamlashtirish va boshqa yo'nalishlarda qo'shma dastur va kooperatsiya loyihalarni ilgari surishga qaratildi.

Turizm, madaniyat, fan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi faol almashinuvlarni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Bo'lajak "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" formatidagi birinchi oliy darajadagi sammit kun tartibidagi masalalar hamda Yevropaning "Global darvoza" strategiyasi doirasida ikki mintaqaning o'zaro bog'liqligini kuchaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb jihatlari, jumladan, Afg'onistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen huzurida mamlakatimizda Yevropa investitsiya bankining mintaqaviy ofisini ta'sis etish to'g'risida bitim imzolandi.

1958-yilda tashkil etilgan Yevropa investitsiya banki Yevropa Ittifoqining yetakchi moliyaviy institutidir.

Ta'kidlash joizki, ofisning Toshkent shahrida ochilishi o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, O'zbekistonda va umuman Markaziy Osiyoda "yashil"

iqtisodiyot, innovatsion sanoat va zamonaviy infratuzilmani rivojlantirishga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmini oshirish imkonini beradi.

Oliy darajadagi O'zbekiston – Yevropa muzokaralari yakunida birgalikda daraxt ekish marosimi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen Samarqand shahridagi Kongress markazi xiyobonida ikki tup eman ekdilar.

Ko'chat ekish marosimi O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasida do'stlik, ko'p qirrali hamkorlik va sheriklik munosabatlariga yanada mustahkamlanib borayotganining yana bir ramzi bo'ldi.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari hamrohligida Antoniu Koshta va Ursula fon der Lyayen Samarqand xalqaro turizm markazidagi "Boqiy shahar" tarixiy-etnografik majmuasida bo'ldilar.

Mehmonlarga xalqimizning betakror badiiy, hunarmandlik va musiqiy madaniyati namoyish etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand sammitida ishtirok etish uchun yurtimizga kelgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) prezidenti Odil Reno-Basso bilan ham uchrashdi.

Muloqotda mamlakatimizning ushbu nufuzli xalqaro moliyaviy institut bilan keng ko'lami hamkorligini yanada rivojlantirishning amaliy jihatlari atroflicha ko'rib chiqildi.

O'zbekiston va YTTB o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarida yuksak darajaga erishilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Ustuvor tarmoqlardagi qo'shma loyihalar portfeli barqaror kengayib bormoqda. Bankning mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritgan jami investitsiyalari 5 milliard yevrodan oshdi, jumladan, o'tgan yil yakunlariga ko'ra qariyb 1 milliard yevroni tashkil etdi. Moliyaviy ko'makning asosiy hajmi xususiy sektorga to'g'ri kelmoqda.

Mamlakatimiz bo'yicha o'rta muddatli Sheriklik strategiyasi samarali amalga oshirilmoqda. YTTB ekspertlari ko'magida bank sohasini transformatsiya qilish va biznes ushbu imkoniyatlarni kengaytirish choralarini ko'rilmoqda.

Uchrashuvda loyihalarning ijrosi sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish bo'yicha birgalikdagi ishlar o'z natijasini berayotgani qayd etildi. Jarayonlarni maqbullashtirish va loyihalarni tayyorlashni tezlashtirish muhimligi ta'kidlandi.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, davlat-xususiy sheriklik loyihalarni, shu jumladan, ta'lim, suv ta'minoti, maishiy chiqindilarni qayta ishlash kabi muhim yo'nalishlarda kengaytirish masalalari diqqat markazida bo'ldi.

"Yashil" iqtisodiyot, uglerod chiqindilarini kamaytirish, raqamlashtirish va sun'iy intellekt, ipoteka bozori, transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish va boshqa sohalaridagi dastur va loyihalar hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi.

Joriy yil iyun oyida Toshkent xalqaro investitsiya forumi va Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish yuzasidan ham fikr almashildi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,
G'olib HASANOV,
O'ZA muxbirlari.**

Parlament diplomatiyasi

KONSTRUKTIV MULOQOT IZCHIL DAVOM ETADI

Mamlakatimiz poytaxtida muhim voqea – Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasiga tayyorgarlik ishlari davom etmoqda.

Xususan, kecha Toshkentda Parlamentlararo Ittifoq Ijroiya qo'mitasining tashkiliy masalalar yuzasidan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Uni Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva kirish so'zi bilan ochar ekan, dastlab PI rahbariyati, xususan, uning Prezidenti Tuliya Ekson xonim va Bosh kotib Martin Chungongga 150-yubiley assambleyani O'zbekistonda o'tkazishga qaror qilganlari uchun minnatdorlik bildirdi va ushbu tadbirning yurtimizda o'tkazilishi mamlakatimizdagi demokratik islohotlarning xalqaro darajadagi e'tirofi ekanini ta'kidladi.

Tanzila Norboyeva o'z nutqida ijtimoiy adolat, kambag'allikka barham berish va zaif qatlamlarni himoya qilish masalalarining dolzarbligini qayd etib, bu borada parlamentlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhimligiga e'tibor qaratdi. Shuningdek, tadbirda O'zbekiston parlamentining PI faoliyatidagi ishtiroki tobora faollashayotgani ta'kidlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Barqaror rivojlanish maqsadlariga

erishishni jadallashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish to'g'risida"gi BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasini qabul qilish haqidagi tashabbusi PI tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlangani qayd etildi.

– Milliy parlamentimiz, xususan, Senat jahon kun tartibidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ushbu xalqaro tuzilma bilan bundan buyon ham samarali, konstruktiv muloqotni izchil davom ettirishdan manfaatdor ekanligini bildirmoqchiman, – dedi Oliy Majlis Senati Raisi T. Norboyeva.

Shu bilan birga, PI Ijroiya qo'mitasi faoliyati yuqori baholanib, uning parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlashdagi muhim ahamiyatiga urg'u berildi. Parlamentlararo Ittifoq bilan o'zaro hamkorlik doirasida Buxoro va Toshkent shaharlarida xalqaro parlament forumlari hamda unga a'zo davlatlar parlamentlari ayol rahbarlarining 14-sammiti muvaffaqiyatli o'tkazilgani ham ta'kidlandi.

"Xalq so'zi".



QO'SHMA LOYIHALAR ISHLAB CHIQLADI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida ishtirok etish uchun yurtimizga kelgan Osiyo Parlament Assambleyasi Bosh kotibi Muhammad Rizo Majidiy bilan uchrashdi.

Unda O'zbekiston parlamenti va Osiyo Parlament Assambleyasi o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, shuningdek, ekologiya, barqaror rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish kabi yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan asosiy tamoyillarning Osiyo Parlament Assambleyasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari bilan hamohang ekanini o'zaro hamkorlik uchun imkoniyatlarni kengaytiradi.

Shu bois atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik, "yashil" texnologiyalardan foydalanish, "yashil" energetika va kambag'allikni qisqartirish masalalariga ham e'tibor qaratildi.

Muhammad Rizo Majidiy Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar hamda yangi konstitutsiyaviy o'zgarishlar va "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida O'zbekiston erishgan yutuqlarini alohida e'tirof etdi.

Muloqot chog'ida Assambleyaga a'zo mamlakatlar o'rtasida madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish, ziyorat turizmini rivojlantirish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

Yakunda mavjud tashabbuslar doirasida ishlarni faollik bilan davom ettirish va yangi qo'shma loyihalarni ishlab chiqishga kelishib olindi.

KENG QAMROVLI MUZOKARALAR

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Eron Islomiy Kengashi Majlisi Raisining birinchi o'rinbosari Hamidrizo Hojiboboyev boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Muloqot chog'ida parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash va erishilgan kelishuvlarning ijrosini ta'minlash, shuningdek, savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalalari e'tibor markazida bo'ldi.

Ta'kidlanganidek, ikki mamlakat o'rtasidagi do'stona munosabatlar oxirgi yillarda izchil rivojlanib bormoqda. Jumladan, o'zaro tovar ayirboshlash hajmi so'nggi

olti yilda 1,7 baravar o'sib, 2024-yilda 497 mln. dollarga yetdi, O'zbekistonda eronlik investorlar ishtirokida 261 ta korxonada faoliyat yuritayotir.

Uchrashuvda parlamentlar o'rtasida tizimli muloqot o'rnatish va qonunchilik sohasida hamkorlikni kuchaytirish, imtiyozli savdo bitimi doirasida mahsulotlar ro'yxatini kengaytirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

TARIXIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH YO'LIDA

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Misr Arab Respublikasi parlamenti Vakillar palatasi Spikeri Hanafiy Ali al-Gebaliy bilan uchrashdi.

Unda O'zbekiston va Misr o'rtasidagi parlamentlararo aloqalarning istiqbollari muhokama etildi.

Misr O'zbekistonning Yaqin Sharqdagi ishonchli hamkorlaridan biri. Mamlakatlarimiz xalqlari o'rtasidagi tarixiy, madaniy va an'anaviy aloqalar hamkorlikni yanada mustahkamlash uchun poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Muloqotda davlat rahbarlari darajasida erishilgan keng ko'lami bitimlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun parlament nazoratini kuchaytirish muhimligi ta'kidlandi. Ikki mamlakat

parlamentlari Senatlari o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish, ular o'rtasida do'stlik guruhlari faoliyatini jadallashtirish, shuningdek, qo'shma tadbirlar tashkil etishga e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikka ko'maklashish maqsadida qonunchilik bazasini takomillashtirish xususida ham fikr yuritildi.

Yakunda Hanafiy Ali al-Gebaliy Oliy Majlis Senatining Faxriy mehmonlar kitobida dastxat qoldirdi.

"Xalq so'zi".

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Eron Islomiy Kengashi Majlisi Raisining birinchi o'rinbosari Hamidrizo Hojiboboyev boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Eron parlamenti vakillari joriy yilning 5 - 9-aprel kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi doirasida mamlakatimizda bo'lib turibdi.

O'zbekiston - Eron:

ISLOHOTLAR NATIJALARI IJOBIY BAHOLANDI

Muloqot avvalida keyingi yillarda ikki davlat rahbarlarining qat'iy siyosiy irodalari tufayli O'zbekiston va Eron o'rtasidagi munosabatlar sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilgani, ikki tomonlama aloqalarning barcha yo'nalishida o'zaro munosabatlar faollashib, ko'p tomonlama muloqotlar mustahkamlanib borayotgani alohida urg'ulandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil iyun oyida Eron Islom Respublikasiga rasmiy tashrifi nafaqat ikki tomonlama munosabatlarning yangi davrini boshlab bergani, balki O'zbekiston - Eron aloqalarini keng qamrovli hamkorlik darajasiga ko'targani mamnuvniyat bilan qayd etildi.

Suhbat chog'ida mehmonlarga yangi tahrirdagi Konstitutsiya va "O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, Qonunchilik palatasining tarkibiy tuzilishi, uning qonun ijodkorligi yo'nalishidagi faoliyati, palataning qo'mitalari, komissiyalarining asosiy vazifalari haqida batafsil ma'lumot berildi.

O'z navbatida, H. Hojiboboyev samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, O'zbekistondagi muvozanatli, ochiq va konstruktiv tashqi siyosat, keng ko'lami islohotlar va ularning natijalarini ijobiy baholadi.

"Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan tarixiy islohotlarni qo'llab-quvvatlaymiz. Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi Toshkentda o'tkazilishi juda katta siyosiy voqea. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik, jumladan, parlamentlararo munosabatlar tobora mustahkamlanib borayotganidan mamnumiz", dedi H. Hojiboboyev.

Uchrashuvda parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish istiqbollari, uni yangi mazmun bilan boyitish, qonun ijodkorligi sohasida o'zaro tajriba almashish, madaniy-

gumanitar almashinuv bo'yicha muloqotlarni faollashtirish masalalari ham muhokama qilindi.

Tomonlar hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirish va mustahkamlashga kelishib oldilar.

Ta'kidlash joizki, Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi doirasida xorijiy davlatlar parlamentlari vakillari bilan qator tadbir va uchrashuvlar o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Eron Islom Respublikasi Islomiy Kengashi Majlisi bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhning Eron Islom Respublikasi Islomiy Kengashi Majlisi vakillari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqotda keyingi yillarda O'zbekiston - Eron munosabatlari

yangi sur'at bilan rivojlanib borayotgani, ayniqsa, davlat rahbarlarining samimiy va do'stona munosabati hamda sa'y-harakatlari tufayli ikki mamlakat o'rtasida aloqalar yangi bosqichga chiqqani alohida qayd etildi.

O'zaro aloqalarda erishilgan muayyan natijalar e'tirof qilinarkan, parlamentlararo hamkorlikni chuqurlashtirish, jumladan, parlamentlararo do'stlik guruhlari faoliyatini yanada jonlantirish, o'zaro tashriflar almashinuvini davom ettirish zarurligi ta'kidlandi.

Muzokaralar yakunida tomonlar ikki davlat o'rtasidagi munosabat va amaliy hamkorlikni har tomonlama mustahkamlashda parlamentlararo imkoniyatlaridan keng foydalanishga kelishib oldilar.

Uchrashuv do'stona va konstruktiv ruhda o'tdi.

Ravshan MAMUTOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi, guruh hamraisasi:

- Eron bilan O'zbekiston o'rtasida ko'p asrlik tarixiy aloqalarimiz mavjud. Xalqlarimiz o'rtasidagi azaliy madaniy-tarixiy aloqalar esa o'zaro munosabatlarni rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, so'nggi yillarda ikki mamlakat munosabatlari barcha soha va yo'nalishlarda rivojlanib boryapti. Xususan, parlamentlar o'rtasida yaqin hamkorlik olib borilayotgani natijasida parlamentlararo rishtalar ancha faollashdi.

Ishonamizki, mazkur uchrashuv parlamentlararo o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlash, amaliy aloqalar samaradorligini yanada oshirish hamda qonun ijodkorligi sohasida o'zaro tajriba almashish, bu boradagi sheriklikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Madina BARATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, guruh a'zosi:

- Uchrashuvda amaliy hamkorlikni har tomonlama mustahkamlashda parlamentlarning rolini kuchaytirish, bu borada parlament delegatsiyalari almashinuvini doimiy yo'lga qo'yish, parlamentlarning qonun ijodkorligi faoliyati yuzasidan o'zaro tajriba almashish lozimligiga alohida e'tibor qaratildi.

Delegatsiyalarning o'zaro tashriflari ko'plab sohalaridagi ikki va ko'p tomonlama sheriklik rivojlanishi uchun zamin yaratish bilan birga, Eron parlamenti bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash, o'zaro muloqotlarni yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilishi, shubhasiz.

"Xalq so'zi".

Aks sado

INTEGRATSIYA JARAYONLARINI JADALLASHTIRISHNING MUHIM OMILI

Samarqand keyingi yillarda juda ko'p nufuzli siyosiy va madaniy anjumanlarga mezbonlik qilayotgan shaharlardan biriga aylandi. Shu kunlarda mazkur tarixiy shaharda yana bir yirik muhim voqea - "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" sammiti bo'lib o'tayotgani ham fikrimiz dalili.

3-4-aprel kunlariga mo'ljallangan anjuman O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston yetakchilari ishtirokida o'tmoqda. Tadbirda Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen qatnashayotgani ham uning nufuzini belgilab turibdi.

Sammit doirasida O'zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligining uzoq tarixi, tadbir yakunlari bo'yicha ochilishi mumkin bo'lgan yangi iqtisodiy istiqbollarni nuqtayi nazaridan ham alohida qiziqish uyg'otadigan masalalarning iqtisodiy bloki muhokama qilinishi ko'zda tutilmoqda.

Bu haqda fikr yuritarkan, avvalo, "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti oldidan Prezidentimizning "Euronews"ga bergan eksklyuziv intervyusida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Zero, intervyuda ushbu sammitning ahmiyati, undan kutilayotgan natijalar, YI bilan Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hamkorligining istiqbollari tahlili batafsil yoritib berildi.

Mamlakatimizning YI bilan hamkorligi trayektoriyasi keng. Bu hamkorlik

mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq boshlangan. 1992-yilning aprel oyida O'zbekiston hukumati hamda YI komissiyasi o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolagan bo'lsa, 1994-yil noyabrda diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Qolaversa, 1995-yildan boshlab O'zbekistonning Bryusseldagi elchixonasi Yevropa Ittifoqidagi missiya vazifalarini bajarib kelayotir. 2011-yildan poytaxtimizda Yining diplomatik vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. 1996-yil iyunda esa Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi.

Aytish joizki, YI bilan hamkorlik O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan tub islohotlardan keyin yanada faol rivojlandi. 2017-yil iyulda Toshkentga tashrif buyurgan Yevropa komissiyasining Xalqaro rivojlanish va hamkorlik bo'yicha bosh direktori Stefano Manservisi YI O'zbekistonning strategik hamkor sifatida ko'rishini ma'lum qilgan edi. O'zaro munosabatlarning me'yoriy-huquqiy bazasi ham kengaydi. Agar avval O'zbekiston hamda YI Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimga muvofiq bir-biriga eng qulay savdo rejimini taqdim etgan bo'lsa,



2021-yil aprel oyida YI O'zbekistonga Umumiy imtiyozlar tizimi - "GSP+" benefitsiari maqomini berdi. 2022-yilda esa kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi yangi bitim ma'qullandi.

O'zaro hamkorlikning yildan-yilga o'sib borayotganini quyidagi raqamlar ham tasdiqlaydi. Xususan, o'tgan yili Yevropa Ittifoqining O'zbekiston tashqi savdosidagi ulushi tovar ayirboshlashda 9,7 foizni, eksportda 6,3 foizni, importda 12 foizni tashkil etdi. Qolaversa, 2017 - 2024-yillarda O'zbekistonning umumiy eksportida YI mamlakatlari ulushi 3,8 foizdan 6,3 foizga oshganini ta'kidlash lozim. Bu esa iqtisodiyotimizning raqobatbardosh mavqei mustahkamlanganidan dalolat.

Umuman, "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" birinchi sammitining Samarqand

shahrida o'tkazilishi mamlakatimizning mintaqadagi integratsiya jarayonlaridagi mustahkamlovchi roli va "Markaziy Osiyo+" platformalarida hamkorlikni mustahkamlash hamda xalqaro aloqalarni kengaytirish borasidagi faol sa'y-harakatlarining amaldagi e'tirofidir.

Sammit yakunlari nafaqat Markaziy Osiyo davlatlari uchun, balki Yevropa Ittifoqi uchun ham keng istiqbollarni ochib beradi. Iqtisodiy, investitsiya va gumanitar aloqalarni yanada chuqurlashtirish, savdo imkoniyatlarini kengaytirish hamda ikki mintaqaning barqaror rivojlanishi va farovonlikka hissa qo'shadigan qo'shma tashabbuslarni ro'yobga chiqarish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Muqaddasxon AHMEDOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

tutashgan hududda Do'stlik stelasini qad rostlatdi. Ushbu obida qardosh mamlakatlar o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shniçilik, ishonch va strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlanib borayotganining yangi ramzidir, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Markaziy Osiyoda davlat chegaralari muammolarini oqlona yechimlar asosida hal qilish ishlari davom etmoqda. Alohida ta'kidlash joizki, bu kelishuvlarga erishish uchun bir necha yillar davomida uzoq tortishuvlar va mashaqqatli yo'llar bilan chegarada qadam-baqadam yurib, arxiv hujjatlari o'rganildi. Bir necha marotaba Hukumatlararo komissiya yig'ilishlari o'tkazildi. Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi tufayli xalqimiz manfaatidan kelib chiqib, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlar ana shu chegaralarni kelishib olishda muhim ahmiyat kasb etdi.

Erishilgan kelishuvlar natijasiga ko'ra qo'shni davlatlar bilan chegarada o'tkazish punktlarining faoliyati qayta tiklandi. Hozirda ushbu punktlar aholiga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Bu tarixiy voqea Markaziy Osiyo davlatlari o'z muammolarini ahillik bilan hamkorlik va oqlona yondashuv orqali hal etishi mumkinligi, asosiy, mamlakatimizning ikki va ko'p tomonlama formatda tinchlikparvar siyosat olib borayotganining yorqin namoyonidir.

Nuriddin SULTONOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

INSONGA G'AMXO'RLIK - FAOLIYATIMIZ MEZONI

Toshkent shahri 5 - 9-aprel kunlari tarixiy va geosiyosiy jihatdan muhim xalqaro markaz sifatida yirik parlamentlararo anjumaniga mezbonlik qiladi. Qariyb bir hafta mobaynida mamlakatimiz jahon parlament tuzilmalarining to'laqonli a'zosi sifatida global muhokamalar maydoniga aylandi.

Albatta, 190 ga yaqin mamlakatlar parlamentini birlashtirib kelayotgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi ilk bor Markaziy Osiyoda, xususan, yurtimizda o'tkazilishi muhim tarixiy voqea. Ayni chog'da bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotganining yaqqol ifodasidir.

Aytish kerakki, ushbu muhim tadbir mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish va demokratik tamoyillarni ilgari surishda ham katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga, qonun ijodkorligi, parlament nazorati va shu kabi yo'nalishlardagi milliy tajribamiz dunyo hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilayotganini ham tasdiqlaydi. Chunki parlamentarizm ham qanday demokratik tizimning asosidir.

Mazkur anjuman "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" umumiy shiori ostida dunyo parlamentlari nihoyini aholini ijtimoiy himoya qilish va kambag'allikni qisqartirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlari muhofazasi, gender tenglik, ilm-fan, texnologiyani rivojlantirish va yoshlarni qo'llab-quvvatlash kabi dolzarb masalalar muhokamasiga qaratilmoqda. Bu boradagi o'zaro tajribalar muloqot mohiyatini tashkil etadi.

Ushbu yo'nalishlar bejiz tanlanmagan. Chunki so'nggi yetti yilda Prezidentimiz rahbarligida bu sohalarida sezilarli ijobiy natijalarga erishildi. Assambleya O'zbekistonning mana shunday ijobiy tajribasini jahon mamlakatlari bilan bo'lishish, o'rtoqlashish imkoniyatini ham beradi.

Darhaqiqat, oxirgi yillarda O'zbekistonning barqaror rivojlanish bo'yicha maqsadlari, parlament faoliyatini kuchaytirish, nazorat funksiyalari ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan islohotlarni butun dunyoga ko'rsatish, taqdim qilishga munosib deb ayta olamiz. Albatta, bugun yangi O'zbekistondagi ijtimoiy adolat va ijtimoiy barqarorlikka asoslangan xalqparvar siyosat xalqqa minbarlarda e'tirof etilayotgani kishiga mamnuvniyat bag'ishlaydi. Ijtimoiy himoya bo'yicha olib borilayotgan ko'lami keng

islohotlar va ularning natijalari ham buni tasdiqlaydi.

Jumladan, o'tgan davrda kambag'allikni qisqartirish, aholining daromadlarini oshirish, ehtiyojmand insonlarga yaqindan yordam berish, ijtimoiy-iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, umuman, inson huquq va manfaatlarini ta'minlash davlat va jamiyatimizning ustuvor maqsadiga aylandi. Masalan, kambag'allikni ikki barobar qisqartirish maqsad qilib olindi. Bu bo'yicha ijtimoiy yordamning yangi va samarali mexanizmlari joriy etildi. Jamiyatimizda ijtimoiy muhit tubdan o'zgardi. Qiyoslasak, aholini ijtimoiy himoya qilish borasidagi o'zgarishlar, yangilanishlar nafaqat qarorlar va dasturlarda, balki oilalar turmushida aks etayotganiga amin bo'lamiz. Raqamlar, asosiysi, hayotiy natijalar buning isboti.

Masalan, hududlarda "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari ochilib, 102 ta ijtimoiy xizmat mahallalarda yo'lga qo'yildi. Mahalladagi ijtimoiy xodimlar uyma-uy yurib, shu yil reestrda bo'lmagan yana 95 ming muhtoj odamga yordam ko'rsatdi. 51 ming kishiga nogironlik belgilandi, 26 mingi protez oldi, nogironligi bor 5 ming bola bog'cha-maktabga joylashdi. Bu raqamlar ortida esa qanchadan-qancha yurtdoshlarimizning roziligi, shukronaligi bor. Eng muhimi, bularning barchasi O'zbekistonning "ijtimoiy davlat" sifatidagi maqomi mustahkamlanayotgani, jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillari qaror topayotganini ko'rsatib turibdi.

Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasining mamlakatimizda o'tkazilishi ijtimoiy o'zgarishlarning e'tirofi, inson qadriini ulug'lash, ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan muhim siyosiy platforma hamdir. Chunki insoniy munosabatlar parlament diplomatiyasi muvaffaqiyatini belgilaydi. Bu O'zbekistonning demokratik islohotlarga sodiqligini ifoda etish barobarida mintaqadagi konstruktiv siyosiy muloqot markazi sifatidagi maqomini mustahkamlashga ham xizmat qilishi bilan ahmiyatidir.

Muqaddas O'RAZALIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

TINCHLIKPARVAR, PRAGMATIK TASHQI SIYOSAT HOSILASI

Keyingi yillarda olib borilayotgan izchil va keng ko'lami islohotlar, yangilanishlar mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirmoqda. O'zbekiston xalqaro hamjamiyatining teng huquqli subyekti sifatida mintaq va global darajada ochiq tashqi siyosatni yo'lga qo'yib, xorijiy sheriklar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantiryapti. Bunday izchil, aniq va pragmatik faoliyatni xalqaro ekspertlar alohida e'tirof etmoqda.

Ta'kidlash joizki, ushbu yo'nalishdagi asosiy vazifalardan biri - o'z hududi atrofidagi tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, yaxshi qo'shniçilik hamda samimiy muhitni shakllantirish. Shu nuqtayi nazaridan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona, strategik sheriklik va o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish hamda mustahkamlashni ustuvor tashqi siyosiy yo'nalish sifatida amalda yoqlab kelmoqda.

Shu ma'noda, oxirgi yillarda asosiy e'tibor, avvalo, qo'shni davlatlar bilan ko'p qirrali munosabatlarda konstruktiv va strategik mezonlarni joriy etishga qaratildi. Oliy darajadagi muloqotlar esa mavjud muammolar

yechimi yuzasidan erishilayotgan natijalarning tamal toshi bo'lib xizmat qilmoqda.

Ochig'ini aytish kerakki, qator o'n yilliklar davomida o'z yechimini kutayotgan bahsli chegaralar masalalarini hal qilish, sarhadlarimizdagi o'tkazish punktlari faoliyatini qayta tiklash borasida yon qo'shnilarimiz bilan bir necha shartnomalarning imzolanishi mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan katta qadam bo'ldi.

Yana bir muhim masalaning yechimini tasdiqlaydigan tadbir 31-mart kuni Xo'jand shahrida bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Shuningdek, uch mamlakat davlat chegaralari



IKKI MINTAQA O'RTASIDAGI SAMARALI SHERIKLIKNING YANGI SAHIFASI

4-aprel kuni Samarqandda "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti bo'lib o'tadi. Mazkur tadbir muhim siyosiy voqeaga aylanadi va ikki mintaqa o'rtasidagi munosabatlarda yangi bosqichni boshlab beradi.

Dunyo nigohi

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tadigan sammit ishida Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta, Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen, Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov ishtirok etadi.

Bo'lajak sammit xorijiy ommaviy axborot vositalarida katta qiziqish uyg'otmoqda. Xususan, ko'plab bosma va elektron nashrlar sahifalarida bo'lajak sammitga bag'ishlangan tahliliy maqolalar chop qilinyapti. Ularda "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" formatidagi birinchi sammitning O'zbekistonda, ya'ni tarixiy Samarqand shahrida o'tkazilishi mamlakatimizning mintaqaviy integratsiya jarayonlaridagi mustahkamlovchi roli hamda "Markaziy Osiyo+" platformalarida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash va xalqaro sheriklikni kengaytirish bo'yicha faol sa'y-harakatlarining e'tirofi ekanligi qayd etilgan.

Xususan, Yevropa Ittifoqi kengashi rasmiy portalida e'lon qilingan maqolada sammit iqtisodiyot, ekologiya va siyosat

sohalarida hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan alohida ta'kidlandi. Shuningdek, Samarqand barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi va xavfsizlik sohasida tajriba almashish va qo'shma yechimlarni amalga oshirish uchun muloqot maydoniga aylanishi aytilgan.

Yevropa Ittifoqining "EU Reporter", "The Brussels Times" va "Eurasia Magazine" kabi yetakchi onlayn-portalida O'zbekiston o'zini mintaqaviy va mintaqalararo hamkorlik platformasi sifatida ko'rsatayotgani hamda ekologik barqarorlikni oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan loyihalarga sodiqligini namoyish qilayotgani yozilgan. Vengriyaning taniqli "Daily News Hungary" va "Hello Magyar" nashrlarida yozishlaricha, sammit O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasida iqtisodiyot, energetika, transport, ekologiya va raqamli iqtisodiyot kabi muhim sohalarini qamrab olgan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimning kuchga kirishini tezlashtirishi mumkin. Ispaniyaning yetakchi "El Mundo Financiero" elektron nashrida Samarqand sammiti O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zoliq yo'lida muhim bosqich bo'lishi mumkinligi ma'lum qilingan.

Sammitga Yaqin Sharqdagi yetakchi ommaviy axborot vositalarida ham alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Qatarning "Asian Telegraph Qatar" gazetasida bosilgan maqolada yozilganidek, sammit Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi. Saudiya Arabistonining "An Nahar News" va Iordaniyaning "Ammon News" gazetalarida ham sammit Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirishning boshlang'ich nuqtasi sifatida e'tirof etildi.

Misrning "Sada al-Balad" axborot agentligi muxbiri mazkur sammit o'zbekistonning "GSP+" maqomi doirasida Yevropa Ittifoqiga eksport hajmini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochishini kutilmoqda, deyiladi materiallarda.

"Islamabad Post", "The Gulf Observer", "The Europe Today" va "Pakistan in the World" kabi Pokistonning yetakchi ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlarda O'zbekiston va Yevropa o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash uchun transport va logistika infratuzilmasini muhimligiga e'tibor qaratildi. Nashrlarda sammit logistika yo'nalishlari, jumladan, Transkaspiy multimodal koridorini muhokama qilish uchun platformaga aylanishi, o'z navbatida, Yevropa bozorlariga chiqish imkoniyatlarini yaxshilashi ta'kidlangan.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining ommabop ommaviy axborot vositalari, xususan, "Kazinform", "Kabar", "Xovar", "Alliance Press", "Avesto" axborot agentliklarining xabar berishlaricha, bo'lajak sammit mintaqa mamlakatlari o'rtasida ilmiy va ta'lim sohasidagi hamkorlik uchun yangi ufqlarni ochadi. Turkmanistondagi "News Central Asia" axborot agentligi muxbiri yevropalik sayyohlarning ehtiyojlari va afzalliklarini hisobga olgan holda O'zbekistonning turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida Yevropa kompaniyalarini jalb etish iqtisodiy hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lishi mumkinligiga e'tibor qaratgan. Qirg'izistondagi bir qator elektron nashrlarda Markaziy Osiyo uchun muhim bo'lgan ushbu sammit

sertifikatlashtirish, raqamli transformatsiya va O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi sohasidagi hamkorlik o'zbek tovarlarining raqobatbardoshligini oshirishi va savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashi kutilmoqda, deyiladi materiallarda.

"Bernama" (Malayziya), "Milano Finanza" (Italiya), "Berliner Zeitung" (Germaniya), "Financne Noviny" (Slovakiya), "Masarat Center for Strategy & Media", "Al-Diplomasiya", "Wrkaa News" (Saudiya Arabistoni), "TOLNews" (Afg'oniston), "World News" va "Daily Big Digit" (Pokiston), "Open4business", "Fixygen", "Gordon" (Ukraina), "Orient" (Turkmaniston) kabi xorijiy elektron va bosma nashrlar, shuningdek, boshqa mamlakatlarining qator yetakchi axborot resurslari Markaziy Osiyo va Yevropa o'rtasidagi hamkorlikning turli yo'nalishlariga e'tibor qaratmoqda.

Xorijiy ommaviy axborot vositalari muxbirlari "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" sammiti tomonlar o'rtasidagi strategik sheriklikning yangi sahifasini ochishini alohida ta'kidlashmoqda. Sammitda siyosiy, iqtisodiy, sarmoyaviy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash, iqlim o'zgarishi, mintaqada xavfsizlikni ta'minlash kabi dolzarb global muammolarni hal qilishga yordam beradigan aniq kelishuvlar imzolashini kutilmoqda.

"Dunyo" AA.

Kelajak sari dadil qadam

Keyingi yillarda xalqaro maydonda noodatij jarayon kechmoqda. Buni jahon sahnida sodir bo'layotgan ziddiyatlar zanjiri hamda globallashuv jarayonining shiddatli tus o'layotgani bilan xarakterlash mumkin. Mana shunday murakkab bir davrda O'zbekistonning, qo'shni davlatlarning yuritayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosati dunyo yetakchilari uchun jozibadorlik kasb etmoqda. Buni "Markaziy Osiyo+" formatidagi sammitlarning ortib borishida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Fikr

Ayni kunlarda dunyo hamjamiyatining nigohi yana O'zbekistonga qaratiladi. Samarqand shahrida "Markaziy Osiyo - Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti bo'lib o'tmoqda. Tahlilchilar sammit yurtimizda o'tishining o'ziga xos jihatlarga e'tibor qaratib, bir nechta argumentlar keltirmoqda.

Birinchidan, O'zbekiston Markaziy Osiyoning hamma davlati bilan umumiy chegaraga ega yagona davlat. Shu bilan birga, mintaqadagi barcha davlatlar bilan kuchli diplomatik munosabatlarga ega.

Ikkinchidan, O'zbekiston mintaqadagi aholisi eng ko'p davlat. Bu o'z-o'zidan eng katta ishchi kuchiga ega ekanligimizni ham anglatadi.

Uchinchidan, keyingi yillarda iqtisodiy ko'rsatkichlar mo'tadil o'sayotir va bu o'sishni davom ettirish uchun katta potensial mavjud. Shuning uchun ham "Kelajakka sarmoya kiritish" shiori ostida o'tayotgan sammit xalqimiz farovonligi, ijtimoiy-iqtisodiy istiqbol uchun ham hayotiy ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo muammolar girdobida qolib kelgan kechagi mintaqada emas, bugun hududda muhit butunlay o'zgaragan. Sammit yanada yangi imkoniyatlar yaratadi. Yevropa Ittifoqi 27 a'zo davlatdan iborat, dunyodagi eng yirik bozorlardan hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiy qudrat, balki huquqiy, texnologik va ekologik standartlarni belgilaydigan global platforma sifatida ham tan olingan.

O'z navbatida, O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi iqtisodiy hamkorligida keyingi yillarda katta o'sish kuzatilgan. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma'lumotlariga ko'ra, 2017 - 2024-yillar davomida O'zbekistonning YI mamlakatlari bilan tovar aylanmasi hajmi 2,4 barobar - 2,6 mlrd. dollardan 6,4 mlrd. dollargacha o'sgan. 2024-yilda eksport hajmi 2023-yildagiga nisbatan 26,9 foizga ortgan.

Bundan tashqari, mamlakatimizda Yevropa kapitali ishtirokidagi korxonalar soni mingdan ortiqni tashkil qilib, investitsiya loyihalari hajmi esa 30 mlrd. yevroga yetgan. Raqamlardan ham ko'rinib turibdiki, Yevropa Ittifoqi O'zbekistonning yirik hamkoriga aylanib ulgurd.

Samarqand sammitida investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish va tovar ayirboshlashni ko'paytirish, innovatsiyalar, "yashil" energetika, tog'-kon, qishloq xo'jaligi, transport, logistika va raqamlashtirish sohalarida qo'shma dastur va kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, madaniyat, turizm, fan, ta'lim va boshqa ustuvor yo'nalishlarda faol almashinuvlarni davom ettirish masalalari diqqat markazida bo'ladi. Muhimi, bunday keng tarmoqlarni qamrab olgan katta miqyosdagi muzokaralar mamlakatimizga yirik investitsiyalar oqimini olib kelishi va aholining turmush farovonligini ta'minlashga ulkan hissa qo'shishi tabiiy.

Aytish joizki, Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilari va Yevropa Ittifoqining asosiy institutlari rahbarlari bugun o'z ishini boshlaydigan Samarqand xalqaro iqlim forumining yalpi majlisida ishtirok etadi.

Iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga kelayotgan muammolar inson genetikasiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatishni boshladi. Shuning uchun iqlim masalasi endi dunyo hamjamiyati kun tartibidan tushmaydi. Tabiatni asrash, "yashil" energetika, "yashil" iqtisodiyot singari masalalar bir yoki bir nechta davlat zimmasidagi masala emas. Bunga global miqyosda yechim izlash, hamjihatlikda ish olib borish talab etiladi.

Samarqand sammiti O'zbekiston uchun nafaqat diplomatik yutuq, shu bilan birga, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologiya sohalarida ham rivojlanishimizga zamin yaratadi. Yurtimizning Yevropa bilan aloqalari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi.

Qizilgul QOSIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

"O'zbekiston: bolalar tilidan hikoyalar" kitobi Germaniyada chop etildi

Germaniyada ilk bor boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan "O'zbekiston: bolalar tilidan hikoyalar" nomli yangi kitob nashr etildi.

Biz va jahon

Gyottingen universiteti loyihasi doirasida mualliflar Albert Fayerabend va vatandoshimiz Nasiba Abdullayeva tomonidan yozilgan mazkur kitob germaniyalik yosh kitobxonlarga mamlakatimiz, uning tarixiy shaharlari, boy madaniyati va urf-odatlari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, maktab yoshidagi bolalarni O'zbekiston bo'yab qiziqarli sayohatga chorlaydi.

Kitob qahramonlari Nodir, Madina, Sevara va Bahodir Toshkent, Samarqand, Xiva shaharlari va Farg'ona vodiysining diqqatga sazovor joylari, yurtimizdagi sharqona bozorlar, qishloq va shaharlardagi jo'shqin hayot haqida hikoya qiladi.

Rang-barang rasmlar bilan bezatilgan kitob mazmunan boy va mamlakatimizning deyarli barcha hududining tabiatini ochib bergan. Kitobda o'zbekistonlik bolalarning kundalik hayoti, ularning oilaviy an'ana va urf-odatlari atroflicha yoritilgan.

Ayniqsa, o'zbek mahallalari, milliy hunarmandchilik, ipakchilik mavzulari haqidagi hikoyalar bolajonlarda katta qiziqish uyg'otadi.

Asar navqiron avlodning O'zbekiston haqida tasavvurlarini kengaytirish, madaniyatlararo tushunish va boshqa xalqlar an'analarga hurmat tuyg'ularini rivojlantirishga qaratilgan. Nashr boshlang'ich va o'rta maktab yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, Germaniyadagi kitob do'konlarida, shuningdek, onlayn platformalarda mavjud.

"O'zbekiston: bolalar tilidan hikoyalar" kitobining nashr etilishi O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi madaniy aloqalar hamda o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash, navqiron avlodni do'stlik va jahon madaniyatlarini xilmaxilligiga hurmat ruhida tarbiyalashga hissa qo'shishda muhim qadam bo'ldi. "Q Gallerie Berlin" ko'rgazmalar galereyasida mazkur kitobning taqdimoti o'tkazildi.



Albert Fayerabend, kitob muallifi:

- Kitob yosh nemis kitobxonlarini o'zbekistonlik bolalarning kundalik hayoti, maktabdagi darslari qanday kechishi, qiziqishlari bilan tanishtiradi. Germaniyada bolalar tilida dunyo mamlakatlarini tanishtiradigan, masalan, Turkiya, AQSH, Rossiya va boshqa davlatlar haqida ko'plab asarlar mavjud, mazkur kitob esa O'zbekiston haqidagi bolalar uchun yozilgan birinchi risoladir.

Nasiba Abdullayeva, hammuallifi:

- Germaniyaga oilaviy ko'chib kelganmiz. O'g'lim shu yerdagi maktabda o'qiydi. Biz bu yerda O'zbekiston haqida nemis tilida bolalarbop kitob topa olmadik. Bu esa ushbu kitobni yozishga undadi.

Kitob 7 dan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda mamlakatimiz haqidagi boshlang'ich ma'lumotlar kiritildi. Masalan, zaminimizdagi turli madaniyatlarni Toshkent shahri misolida ko'rsatishga harakat qilidik. Samarqand shahri qadimdan madaniyatlar o'chog'i bo'lgani bola tilidan tushuntirildi.

Kelajakda ham mazkur loyihani davom ettirish niyatimiz bor.

"Dunyo" AA.
Berlin

"Shunqorlar" bellashishdi

Xorazm viloyati hokimligining tashabbusi bilan hududdagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil o'layotgan yoshlar o'rtasida "Talabalar bahori - 2025" hattaligi doirasida Urganch garnizonidagi harbiy qismlardan birida viloyat hokimi kubogi uchun "Shunqorlar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasi o'tkazildi.



"Talabalar bahori - 2025"

Bellashuvda viloyatdagi yettita oliy o'quv yurtidan 18 dan 30 yoshgacha bo'lgan talabalar ishtirok etib, jamoaviy tarzda safda shaxdam qadam tashlab yurish, pnevmatik miltiqdan nishonga o'q uzish, granatani uzoqqa uloqtirish,

avtomatni noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish, gazga qarshi niqobni kiyib yugurish, 100 metr masofaga yugurish, turnikda tortilish kabi shartlar asosida g'alaba uchun kurashishdi.

Musobaqa shartlariga ko'ra, 1-o'rin Urganch davlat pedagogika instituti jamoasiga nasib etildi. 2-o'ringa Urganch davlat universiteti hamda 3-o'ringa Urganch innovatsion universiteti jamoalari munosib topildi. G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan rag'batlantirildi.

"Xalq so'zi".

MAMLAKAT BO'YLAB YANGILIKLAR, VOQEALAR, TAFSILOTLAR



Ta'lim

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi garchi umumta'lim muassasasi bo'lsa-da, o'quv yurtidagi saviya darajasini oliy o'quv yurtiga mengzasa bo'ladi. O'quv-tarbiya dasturidagi tig'izlik, chuqur bilim berishga asoslangan o'ziga xos dars jarayonlari va pirovardida o'quvchilarining bilim darajasi yuqoriligi fikrimizga dalolatdir.

IJODNING JOZIBADOR OLAMI

"Maktab ichida maktablari bor" o'quv maskani deb atash ham o'rindir. Chunki o'quvchilar darsdan so'ng oz emas, 12 ta ixtisoslashtirilgan to'garakdagi mashg'ulotlarda qatnashishi imkoniga ega. To'garaklarki, barchasi aniq jadval va o'quv-mashg'ulot rejasini asosida faoliyat yuritadi. Ta'bir joiz bo'lsa, har bir to'garak o'z yo'nalishi bo'yicha mukammal mahorat maktabi sanaladi.

o'qituvchilari belgilangan imtihonlar hamda kasbiy malaka darajalari asosida ko'plab nomzodlar orasidan tanlab olinadi. Shu ma'noda, to'garak rahbarlari ham ma'lum ixtisoslik bo'yicha amaliy tajriba, yuqori malakaga egaligiga, eng muhimi, mazkur yo'nalishning professional mutaxassisligi hisobga olingan holda tanlangan. Ayni shu omil tufayli o'quvchilarimiz maktabdagi turli ixtisosliklar bo'yicha keng nazariy bilim va amaliy ko'nikma olmoqda.

rahbarlari sifatida jamlangan. Masalan, O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi, "Do'stlik" ordeni sohibi Anorboy Boybekov "Tasviriy va amaliy san'at", O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, "Shuhrat" medali sohibi Husniddin Hayit "Yosh ijodkorlar", Sirdaryo viloyati musiqali drama teatrining iste'dodli aktyori Qandiyor Rustamov "Drama" to'garagini boshqarmoqda. Jumalistika to'garagida ham mediasohaning professional va taniqli vakillari faoliyat yuritmoqda.

to'garakda 30 dan ziyod o'quvchilar qatnashmoqda. To'garak qoshida "Navbahor" raqs ansambli tashkil etilgan. Uning chiqishlari yetuk jamoalar ijrosidan kam emas.

Ijod maktabida o'qiyotgan o'smir borki, biror to'garakda ishtirok etadi. Aksariyati bir emas, bir nechtasining a'zosi. Bu degani, bunday o'quvchilar erta-indin maktabni bitirib, turli ixtisoslik, ya'ni kasb-hunardan ham ma'lum amaliy ko'nikmaga ega bo'lib, mustaqil hayotga qadam qo'yadi. Ijod maktabi ichra "mahorat maktablari" bo'lmish ixtisosliklar bo'yicha to'garaklarda o'rganganlari ularning kelgusida yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlarida muhim poydevor sifatida xizmat qiladi.

Ahmadali ShERNAZAROV ("Xalq so'zi").

Tabiat mo'jizasi SAYROBNING O'N ASRLIK CHINORLARI

Surxondaryo xushmanzara manzillarga boy. Ayniqsa, bahavo Boysun tumanidagi Sayrob qishlog'i haqida gap ketganda, avvalo, ko'z o'ngimda yoshi salkam ming yillik ikki tup chinor gavaladanadi.



Bu chinorlar tanasida katta kovak bo'lsa-da, ular qariyb 950-yildan buyon yashnab turadi. Chinor kovagi o'tgan asr boshlarida bir muddat askarlar qarorgohi, 1920-yilda qishloq kengashi idorasi uchun boshpana bo'lgan bo'lsa, 1932 - 1934-yillarda bu yerda kutubxona faoliyat olib borgan. Keyinchalik savdo do'koni, maktab, choyxona, sataroshxona o'mida ham foydalanilgan. Sayrob chinorlari tabiiy yodgorlik sifatida muhofazaga olingan. Hozirda chinorlar kovagida mo'jazzina muzey tashkil etilgan.

Ahamiyatlisi, bu yerdagi baliqlar ham mashhur. Ushbu manzil - mahalliy va xorijlik sayyohlarning sevimli maskanlaridan. Sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida uzoq yillik tarixga, o'ziga xos turistik ahamiyatga ega maskanda sanitariya-gigiyena shoxobchasi, ko'chma savdo do'konlari qurilgan. Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilgan.

Bu qishloqning yana bir sinoati shuki, uch mingga yaqin aholi istiqomat qilsa-da, ilgari va na hozir qandili diabet kasalligiga chalingan birorta kishi uchramaydi. Buning siri, buloq va baliqlar bilan bog'liq.

- Bu buloq qishloq aholisining asosiy ichimlik suv manbai, - deydi mehnat faxriysi Jo'rabek Hasanov. - Shu paytgacha hududimizda birorta odam qandili diabet bilan og'rimagan. Ushbu chashma suvidan bahramand bo'lish uchun qo'shni viloyatlardan ham kelishadi. Bemorlar buning foydasini sezayotganini o'zlaridan ham eshitaymiz. Olimlarimiz sunving tarkibiga oid sir-sinoatlarni ilmiy jihatdan o'rganishga maqsadga muvofiq bo'lardi. Qishloqimiz tog'ning shundoqqina tagida joylashgan. Odamlar suvni tog' bag'ridan keladi, deb o'ylaydi. Lekin bu tog' suvni, nomi ham "suvsiz tog'". Asrlar osha bir maromda oqib turuvchi chashma suvi bu tog'da yig'ilmasligi aniq. Bizningcha, suv juda uzoqlardan oqib keladi. Chashmadagi baliqlar bir xil turda, boshqachasi uchramaydi.

Qishloq oqsog'li Jo'rabek otaning mulohazalarini tinglab, Navoiy viloyatining Nurota tumanidagi "Chashma" tarixiy-me'moriy majmuidagi Chashma buloq hovuzi yodimizga tushadi. Buloqdagi baliqlar Sayrob chashmasi baliqlari bilan bir xil. Sunving ta'mi ham bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Balki bu ikki buloq va baliqlarning bog'liqligi bordir - Sayrob bulog'i yuzlab chaqirim yo'l bosib Nurota chashmasidan kelayotgandir, degan taxmin ham bor.

Farhod ESONOV ("Xalq so'zi").

Hayot zavqi QAMISHNI "SAYRATGAN" USTA

Dehqonobodda Navro'z tantanali tog'liklarning ko'ngli, fe'l-atvori kabi keng, poyonsiz quru adirlar bag'rida, dashtu dalalarda nishonlanadi. Qishloqdoshlar, mahalladoshlar Navro'z bayrami bahonasida keng dalada to'planib milliy taomlar pishiradi. Kurash, ko'pkari, chillak, arqon tortish kabi o'yinlar tashkil etadi. Milliy kuy va ohanglar dillarga o'zgacha tuyg'ular baxsh etadi.



Ayniqsa, Dehqonoboddagi Navro'z sayillari xalqimizning qadimiy sozlari - nay, do'mbira, chanqovvuzi sibizg'alarisiz o'tmaydi. Aksariyat dehqonobodliklar bu sozlarni chalishtirish xush ko'radi. Ammo ularni o'z ustalari chalganida bu mitti sozlar tom ma'noda "sayrab" ketadi.

Dehqonobodning Usmondara qishlog'ida tug'ilib voyaga yetgan Ahmad baxshi Jo'rayev ham sibizg'a ustad. Qaysi tadbirga yo'l olmasin, cho'ntagida sibizg'asi bilan boradi. Yosh-yalanglar darrov uni o'rab olib, sibizg'a chalib berishini so'raydi. Bu yil 65 yoshni qarshilagan Ahmad bobo shu yerdagi xarsanglardan birinchi ustiga cho'kkalab, o'tgan kuzda qamishdan o'zi yasagan sibizg'asini oladi. Keng dalani mitti sozning goh mungli, goh o'yniqi sadosi tutadi.

- Milliy cholg'u asboblari chalingan kuylarda xalqimizning qadimiy urf-odatlari, madaniyati, boy tarixi mujassam, - deydi Ahmad baxshi Jo'rayev. - Sibizg'aning boshqa sozlardan farqi, uni faqatgina qamishdan qo'lda yasash mumkin. Hech qanday texnologiyalar yordamida bu sozni yasab bo'lmaydi. Yasasangiz-da, ovozi qamishnikdek chiqmaydi. O'zim sibizg'a chalishtirishni ham, uni yasashni ham yoshligimda bobodan o'rganganman. Elik yildan buyon muntazam chalib kelaman. Yaxshi sibizg'a yasash kishidan katta tajriba, o'z ishiga bo'lgan mehr va ishtiyoqni talab etadi.

Baxshining aytishicha, sibizg'a yasash qamish tanlashdan boshlanadi. Imkon qadar suvni kam ichgan, yetilish pishgan va kerakli o'lchamdagi qamish poyasini olib, toza va salqin joyda obdan quritiladi. Qamish to'liq tayyor bo'lgachgina, sibizg'ani yasashga kirishiladi. Usta o'lchamlarga, ayniqsa, sibizg'aning "tilini" chiqarishga juda e'tiborli bo'lishi kerak. O'zgina hafsalasizlik ham kutilgan ohangni bermaydi.

Ahmad baxshi Jo'rayev nafaqat chanqovvuz, nay chalishtiradi, balki yasashda ham mohir. U bugun yoshlarga ham xalqimiz milliy madaniyatining uzviy bir bo'laki bo'lgan bu sozlarni yasash va chalishtirish o'rgatib, ularning ohanglarini targ'ib qilish va saqlab qolishga o'z hissasini qo'shib kelmog'ida.

Jahongir BOYMURODOV ("Xalq so'zi").

Yashayotgan qadriyatlar

Ma'lumki, Samarqand VII asrdan boshlab qog'oz ishlab chiqarish bilan mashhur bo'lgan. Uning qog'ozlari turli mamlakatlarga ko'p miqdorda olib ketilgan. Bu qog'ozlarning ta'rifi "Samarqand sulton qog'oz", "Samarqand shoyi qog'oz", "Mir Ibragimiy", "Nimkanop" nomlari ostida jahonga yoyilgan.

Bunday turlarni yaratishda xomashyo sifatida paxta, ipak va tut daraxti po'stlog'idan keng foydalanilgan. Ipak tolalaridan tayyorlangan qog'ozlar o'ta sifatli, pishiq, yuzasi juda silliq novvot rangda bo'lgan. Ushlaganda muloyim bo'lib, "ipak" deb atalgan. Siyob arig'i bo'yida ikki mingga yaqin suv tegirmonlari ishlab turgan. Ularning 400 dan ortig'ida qog'oz ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.



SAMARQAND QOG'UZINING SIRI NIMADA?

Buyuk san'atkor-xattot Sulton Ali Mashhadiy: "Har qancha sinasang ham Xitoy qog'ozidan yaxshisi yo'q. Ammo Samarqand qog'ozini behabodir... Undagi yozuv ravon va go'zal bo'ladi" desa, shoh va sho'ir Zahiriddin Muhammad Bobur: "Olamda yaxshi kog'az Samarqanddin chiqar, Juvozi kog'azlar suyi tamom Konigildin keladur. Konigil Siyohob yoqasidaturkim, bu qora suvni Obirahmat ham derlar", deya yuksak e'tirof etgan. Kulollari bilan dunyoga mashhur Konigil 2020-yilda "turistik qishloq" maqomini oldi. Endilikda bu joyga ekskursiyalar uyushtirilmoqda. Sayyohlar Siyob daryosi bo'yidagi obodonlashtirilgan hudud bo'yib sayr qiladi. Mahalliy hunarmandlarning ustaxonalarida mahorat darslarida qatnashadi. Shu yerda ishlangan esdalik sovg'alarini qiziqish bilan sotib olishadi.

- 1995-yilda Buxoroning Kogon shahrida o'tkazilgan YUNESKO xalqaro konferensiyasida Samarqand qog'ozini ishlab chiqarishni qayta yo'lga qo'yish loyihasi bilan qatnashgandim, - deydi "Konigil Meros" qo'natmasi rahbari, "Mehnat shuhrati" ordeni sovrindori Zarif Muxtorov. - Dastlab

bu amaliy san'at turini o'z xonadonimda tikladim. Samarqand qog'ozini yaratilishi sir-sinoatlarini to'liq o'zlashtirganimdan keyin Konigil qishlog'ining Siyob arig'i oqib o'tadigan eng so'lim go'shasida "Konigil Meros" qog'oz ishlab chiqarish hunarmandchilik markaziga asos soldik. Hozirda kuniga 100 donadan ortiq turli hajm va rangdagi qog'ozlar ishlab chiqaryapmiz. Samarqand qog'ozidan kiyimlar, yo'l xaltalari tayyorlayapmiz. Ularni yuvib, uzoq vaqt ishlatsa bo'ladi. Chunki Samarqand ipak qog'ozini suvda ivimaydi.

Qolaversa, bu qog'ozlar noyob mahsulot sifatida miniatyurachilik rassom va kalligraf uchun ham qo'l kelmog'ida. Hatto Yaponiyada qadimiy yozma bitiklar va nodir asarlarni qayta ta'mirlashda keng foydalanilmoqda. Samarqandlik xattot Abdullajil Ergashev ham 60x80 hajmdagi katta Qur'on kitobini Samarqand qog'ozida yozdi.

- Ulug' kalom bitilgan kitobni uch yil davomida 310 varaqqa, ikki tomonlama 620 sahifada yozishga muvaffaq bo'ldim, - deydi mohir xattot. - Bir paytlar Samarqand qog'oziga sharqona ta'rif berilib, "Sultoniy" hamda "Xuroson qog'oz" kabi atamalar ishlatilgan. Ular sifati bilan ajralib turgan. Shu

sababli Samarqand qog'oziga ko'chirgan mazkur kitob ham o'zining qadimiyligi va nafisligi bilan behabodir.

Shaharning bir chetida joylashgan ushbu hunarmandchilik markazida qadimiy Samarqand qog'ozlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan shu mahallada yashovchi ko'plab yoshlarni ish bilan ta'minladi. Ular ajdodlarining hunari va san'atlarini dunyoga ko'z-ko'z qilib kelmog'ida. Shu bois bu yerdan xorijlik sayyohlarning qadami uzilmaydi. Negaki, qo'l yordamida oddiy usulda qog'oz ishlab chiqarish va undan turli mahsulotlar tayyorlash jarayoni ko'pchilikka qiziq.

Bugun Konigil qishlog'idagi amalga oshirilgan ishlar tahsinga sazovor. Bu yerda tarixiy binolarning qiyofasi tiklandi, mehmon uylari, ovqatlanish shoxobchalari faoliyati yo'lga qo'yilib, Siyob arig'i atrofida piyodalar yo'lga, dam olish maskanlari tashkil etildi. Ishonamizki, azaldan jahon bozorlarini egallab olgan Samarqand qog'oz kelgusida ham eng ko'p xarid qilinadigan noyob mahsulotga aylanadi.

Abdulaziz YO'LDOŠEV ("Xalq so'zi").

HAM DAROMAD, HAM SAYOHAT



Mutaxassislar ta'kidlashicha, 2025-yilda mavsumiy gullarning kompozit guldastalari: gladiolus, xrizantema va daxliyas xaridorlar orasida eng mashhuri bo'ladi. Afzalliklarning mavsumiyliigi bozorda aniq ko'rinadi: mart oyida xaridorlar lolalarni, aprel va may oylarida - chinnigullar va piyongullarni, avgust va sentyabr oylarida - xrizantemalarni tanlaydi. Atirgullar savdo tuzilmasining 90 foizini tashkil qiladi.



Izlanish

Keyingi yillarda Andijon viloyatining Oltinko'l, Izboskan va Andijon tumanlari ham gulchilikka ixtisoslashib bormog'ida. Xususan, Oltinko'l'da ilk gulchilik markazi tashkil etilgan iste'molchilarga arzon va sifatli gullar yetkazib berishda katta rol o'ynaydi.

Ayni paytda bu yerda 9,3 gektar maydonda 30 nafardan ziyod soha vakillari faoliyat olib bormog'ida. Gulchilik bilan shug'ullangan tadbirkorlar shu paytgacha o'z xonadonida faoliyat olib borgan bo'lsa, endilikda tajribali gulchilar yagona markaz atrofida birlashdi, - deydi markaz mas'ul xodimi Navro'zbek Sodiqov. - Buning uchun maydon 26 qismga ajratildi.

Tadbirkorlar tomonidan 8,9 gektar yer maydoni kimoshdi savdosi orqali sotib olindi. Qolgan qismida ko'rgazma maydoni va tashrif buyuruvchilar uchun sharoitlar yaratildi. Bu joy gul yetishtirish bilan shug'ullanuvchilar maskani emas, balki o'ziga xos agroturizm manzili hamdir. Avtomobillar turargohi, tamaddixon va turli tadbirlar uchun maydon ham ishga tushirildi. E'tiborlisi, ushbu markazning ishga tushirilishi orqali noyob o'simliklarni hudud iqlimiga moslash imkoniyati ham yaratildi. Endilikda turli davlatlardan olib kelingan, yilning to'rt faslida ham yashnab turuvchi gul va butalarni mahalliyashtirish ishlariga kirishilgan. Buning uchun markazning 2,5 gektar maydonida issiqxonalar tashkil etilgan bo'lib, ularda 10 ta tadbirkorlik subyektlari faoliyat olib bormog'ida. Bunday sa'y-harakatlarni amalga oshirish uchun 100 ta doimiy ish o'rni yaratilgan bo'lib, mavsumda bu raqam 250 taga yetishi ko'zda tutilgan.

- Gulchilik faoliyati bilan besh yildan beri shug'ullanaman. Shu yillar davomida mahsulotni respublikamiz bo'yib yetkazib berishni yo'lga qo'ydik, - deydi tadbirkor Omadbek Shokirov. - 70 sotix yer maydonida o'nandan ziyod gullarni parvarishlab kelyapmiz. Xaridorlarning noyob

Xalq so'zi Narodnoe slovo
MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT
2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi - 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.
Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.
TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va ummulligga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahilalanadi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxonani telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir S. Mamurov.
Musahhih Sh. Mashrabboev.
"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonani manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 01.40 Topshirildi - 02.10 1 2 3 4 5 6